

**GILAM TURLARI VA GILAM MAHSULOTLARI TAYYORLASH  
TEXNOLOGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (JIZZAX VOHASI MISOLIDA)**

**Abduqodirov Sarvar Begimqulovich**  
*JDPU Sirtqi bo'lim Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarda masofaviy ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*  
Tel: +99897 329-15-53

**Xolmurodova Laylo Xolmamat qizi**  
*JDPU Sirtqi ta'lim tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi*  
Tel: 99899 631-10-98

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Jizzax vohasining gilamlarini tayyorlashning o'ziga xos to'qilish texnologiyasi, gilam to'qishda asosiy vazifalarni bajaruvchi uskunalar va ularning turlari haqidagi tahlili mavjud ilmiy tadqiqot ishlar hamda etnografik dala tadqiqotlar orqali yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Olacha, Sholcha, Terma sholcha, G'ajari sholcha, Teng o'rov, tortqi, iygi, qamich (to'qmoq), kuzov (kuzuk), yig yoki dug, ko'targi, odarg'i, ikkita oyog'i, seruv, kuzuv, qilich, uchta qoziq.*

**Аннотация:** *В данной статье на основе существующих научно-исследовательских работ и этнографических полевых исследований выделен анализ уникальной технологии ткачества ковров Джизакского оазиса, оборудования, выполняющего основные задачи в ковроткачестве и их виды.*

**Ключевые слова:** *Олача, шолча, терма шолча, гаджари шолча, тен оров, тортки, ийги, камич (токмок), кузов (кузук), ийг или дуг, котарги, одарги, две ноги, серув, кузув, меч, три кола.*

**Abstract:** *In this article, the analysis of the unique weaving technology of Jizzakh oasis carpets, the equipment that performs the main tasks in carpet weaving and their types is highlighted through existing scientific research works and ethnographic field studies.*

**Key words:** *Olacha, Sholcha, Terma sholcha, Gajari sholcha, Teng orov, tortqi, iygi, kamich (tokmoq), kuzov (kuzuk), yig or dug, kotargi, odargi, two legs, seruv, kuzuv, sword, three stakes.*

Gilamdo'zlik har bir aholining xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan va uy an'anaviy mashg'ulot turidan amaliy san'at turi sifatida rivojlanib bormoqda. Sohaning asosiy xomashyo manbai dehqonchilik va chorvachilikdan olingan paxta, kanop, zig'ir va jun hisoblanadi. O'zbekistonda qadimdan uy sharoitida paxta, jun va kanopdan yigirilgan ipdan gilam to'qilgan. Ayniqsa, uy sharoitida gilam to'qish uchun aholi ko'p holalarda paxta va jundan foydalanishgan<sup>35</sup>.

<sup>35</sup> Jabborov I.M. O'zbek xalqi etnografiyasi. 309 b.

Vohada gilam to‘qishda ikki xil xomashyo – paxta va jundan foydalanganlar. Paxtadan gilam to‘qish vohaning dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan hududlarida yashovchi aholi orasida mavjud bo‘lsa, bundan farqli o‘laroq, jundan gilam to‘qish chorvachilik rivojlangan hududlar aholisi hayotida muhim o‘rin tutgan.

Gilam to‘qish uzoq vaqt davom etadigan jarayon bo‘lganligi uchun to‘quvchidan juda ehtiyotkorlik va o‘tkir zehnilikni talab qiladi. Buning uchun dastlab gilamning loyiha (vohada qaysi gilamni to‘qish asosan aniqlab olinadi)si tanlab olinadi va tanda ipini tanlash bosqichi amalga oshirilib, gilam sifati va chidamliligiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki, gilamning tanda ipining qanchalik mustahkam bo‘lishi, uning chiroyli va pishiqligini ta‘minlaydi<sup>36</sup>. Gilam serjilo, go‘zal va nafis yaratilishida to‘qish uchun ishlatiladigan iplar muhim o‘rin tutadi.

Jizzax vohasi aholisi orasida to‘qimachilik va ipakchilik kasbi qadimgi hunar turi sifatida keng tarqalgan. Jumladan, XX asr boshlarida dehqon xo‘jaliklarida ayollar jundan va paxta tolasidan ip yigirib, gilam va gazlamalar to‘qishgan bo‘lsa<sup>37</sup>, Zarafshon va Farg‘ona vodiylarida maxsus ko‘nikmalarni talab etuvchi ipakdan ip eshish bilan asosan erkak ustalar shug‘ullanishgan<sup>38</sup>. Tolani oddiy charxda tozalab ip yigirganlar. Charxda va urchuqda tayyorlangan kalavalardan xonaki to‘quv dastgohida bo‘z to‘qilib, oq, sariq, jigarrang va boshqa ranglarga bo‘yalgan, undan qo‘lda har xil gilam va kiyim-kechaklar ham tikilgan<sup>39</sup>. Jizzax vohasi aholisi turmush tarzida gilam, sholcha kabi buyumlarni ishlatish hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aholi orasida qo‘y junidan kigiz, gilam, xurjun, chakmon, qop kabi turli uy-ro‘zg‘or anjomlari va kiyim-kechaklar tayyorlanganligi borasida ma‘lumotlar uchraydi<sup>40</sup>.

Voha gilamdo‘zligida dastlab o‘rmak (gilam to‘qish dastgohi) qurish hashar yo‘li bilan amalga oshirilgan. O‘rmakni qurishda qishloqning ko‘pni ko‘rgan obro‘-e‘tiborli onaxonlar bosh bo‘lib turishgan va boshqa ishlarni esa yoshlar bajarishgan. E‘tibor qaratadigan bo‘lsak, bu sohada gilam to‘qish jarayonidagi qadimgi an‘anaviy odatlardan hisoblangan.

Mazkur odatlar bugungi kunda ham voha gilam to‘quvchi ayollari orasida o‘zgarmasdan saqlanib kelayotganligi olib borilgan dala tadqiqotlari ham tasdiqlaydi. Jumladan, Baxmal tumanining Sutlibuloq qishlog‘ida yashovchi Yigitova Nazira momoning ta‘kidlashicha, oddiy gilam to‘qish uchun uch tomonga uchta uchburchak shaklida qoziq qoqilib, ayollar va qizlar turli xil bo‘yalgan iplarni bir necha marotaba aylanib, uchburchak shaklidagi uchta qoziqqa o‘rab chiqishgan<sup>41</sup>. Qashqadaryo vohasida esa iplar o‘rab olingandan keyin uchburchak shaklidagi qoziqning bittasi olinib boshqacharoq shaklga yoki bo‘lmasa, to‘qish uchun qulay holatga moslashtirilgan<sup>42</sup>.

<sup>36</sup> Dala yozuvlari. Jizzax viloyati, Zomin tumani. 2020 yil.

<sup>37</sup> Dala yozuvlari. Baxmal tumani, Sutlibuloq va Duvlat qishloqlari. 2020 yil.

<sup>38</sup> Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. - С.70.

<sup>39</sup> Jabborov I. M. ko‘rsatilgan asar. – B. 125.

<sup>40</sup> Бўриев О., Хўжамбердиев Т. Ўзбек халқи боқий қадриятлари. – Қарши. «Насаф», 2005. – Б. 40.

<sup>41</sup> Dalal yozuvlari. Jizzax viloyati. Baxmal tumani, Sutli buloq qishlog‘i. 2019 yil.

<sup>42</sup> Dala yozuvlari. Jizzax viloyati. Baxmal tumani, Temurqadam qishlog‘i. 2020 yil.

Jizzax vohasi gilamchiligi xilma-xil bo'lib, bugungi kungacha vo ha aholisi gilamlarining murakkab holatga ega eng sodda ko'rinishdagi namunalari etib kelgan va saqlanib qolgan. Masalan, Baxmal tumanining Sovuqbuloq qishlog'ida yashovchi 100 yoshli Qizlaroy momo vo ha gilamlarining juda qadimiy turlari va hozirgi kunga qadar saqlanib qolganlaridan 10 dan ortiq turlari sanab berdi. Vohada *Holi, Yulduz, narpech, boshtiq, xon gilam, gilamxurjun, maschitgilam, sepgilam, joynamoz gilam, bo'sag'a gilam, beshik gilam, partiret (portret) gilam, ipak gilam va otga ayil* kabi gilamlarning barchasi katta *pat gilamlar*, deb ataladi va har bir xonadon egalari tomonidan juda qadrlil sanaladi. Ushbu gilamlarning vohaga xos mahalliy nomlari va xususiyatlari ham bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. *Xoli gilam* – bu patli gilam bo'lib, hajmi juda katta qilib to'qilgan. Vo ha aholisi orasida *Xon gilam, Qo'laki gilam* ham deb ataladi. Qadimda bu gilamga faqatgina boylar buyurtma berib to'qitishgan. Gilamning eni 3 metr uzunligi esa 5,5-6 metrni tashkil qilgan. Hozirda vohaning ba'zi xonadonlarida meros sifatida saqlanib qolganligini etnografik dala tadqiqotlarida ma'lum bo'ldi;

2. *Yulduz gilam* – yulduz naqshi tushirilgan katta gilam turi bo'lib, ehtimol insoniyatning yuksaklikka intilishi ramziy ma'nosida gilamga tushirilgan bo'lishi mumkin;

3. *Naprech gilam* – ko'rpa soladigan xalta gilam hisoblangan. Biroq, o'zi gilam mahsuloti bo'lsa-da, hajmi jihatidan katta bo'lganligi bois gilam turlariga kiradi;

4. *Bashtiq gilam* (vo ha qirg'izlarida), *Kap* (vo ha o'zbeklarida) – kichik hashamli ichiga uy-ro'zg'or uchun ishlatiladigan mahsulotlar solib qo'yiladigan gilamcha hisoblanadi. Mazkur gilamcha gilamdo'zlik buyumi hisoblanib, asosan devorlarga osib qo'yiladi va qizlarga sep sifatida ham tayyorlanadi;

5. *Gilam xurjun* – ot ustiga solinadigan patli gilam yoki gilamchilik buyumi;

6. *Masjid gilam* – qariyalarga atab masjidga namoz o'qish va masjidga ehson uchun to'qiladigan gilam;

7. *Sep gilam* – vohada qizlarning sepi uchun to'qiladigan, nihoyatda bejirim chiroyli va katta gilam turlardan biri;

8. *Joynomoz gilam*– kichik hajmli bir xil rangli namoz o'qiladigan gilamcha;

9. *Bo'sag'a gilam* – eni 1 metr ga, bo'yi 0.5 metrlik chang-g'uborni o'zida olib qoluvchi asosan ostonaga to'shaladigan gilamcha yoki to'shama;

10. *Beshik gilam* – qizning farzandiga beshik olib borganda uning ostiga solinadigan bo'yi 1.5 metr ga, eni 1 metrlik maxsus gilamcha turi bo'lib, bu vohaning o'ziga xos xususiyati ham hisoblanadi. Chunki boshqa joylarda uchramasligi bilan ham ajralib turadi;

11. *Portret gilam* – inson tasviri tushirilib devorga ilinadigan gilamcha bo'lib, hozirda O'zbekistonning deyarli barcha gilamdo'zlik markazlariga xos bo'lmoqda. Ayniqsa, Xorazm vohasida bunday portretli gilamlarning turli hajmli, rangli va ko'rinishli xillari ko'p to'qiladi hamda xorijga ham sotish uchun chiqariladi;

12. *Ipak gilam*– bu gilam hozirda nihoyatda ommalashgan nafis gilam;

13. *Otga ayil gilamcha* – xalqimizda otga taqiladigan eni 15-17 sm uzunligi 1 metr yoki 80-90 sm lik *ayil gilam* hisoblanadi.

O‘z o‘rnida ta’kidlash joizki, aholi orasida joynamoz gilam, bashtiq gilam, bo‘zag‘a gilam, beshik gilam va otga ayil gilamlar hajmi jihatidan kichik bo‘lishiga qaramay, aholi tomonidan qadrlanishi vohaga xos lokal hamda etnik xususiyat kasb etadi. Shuningdek, O‘zbekistonning boshqa hududlari gilamchilik mahsulotlaridan asosan shu jihatlari bilan farqlanadi.

Vohada gilam va gilamchilik buyumlarini to‘qish va tayyorlanish texnologiyasi ham o‘ziga xoslik kasb etadi. Gilamlar qadimda juda oddiy yog‘och dastgohlarda to‘qilgan bo‘lib to‘quv dastgohlari vohada yuqorida qayd etganimizdek *tortqi*, *iygi*, *qamich* (to‘qmoq), *kuzov* (*kuzuk*), *bog‘laydigan taxtalar* kabi nomlarda atalgan. Gilamchilikda erish, arqoq bilan ishlanadi – gilamda asosan pat gilamlarga erishiga qatori 400 ipdan boshlab 1000 ta ipgacha ishlatilgan, arqog‘iga esa 3 kg dan 5 kg ga qadar ip ishlatilgan. Bu o‘lchamlar voha aholisi orasida dastlab aniq o‘lchanib olinmagan. Har bir gilam to‘quvchi buni chamalab ba’zi o‘rinlarda esa maxsus o‘lchoq ishlarini olib borib tayyorlagan. Gilamdo‘zlikda bu ham o‘ziga xos nozik jarayon hisoblangan.

Jizzax vohasining turli hududlarida ilgari gilamlarni bir xil rangda to‘qishgan asta-sekinlik bilan to‘quvchilarning didi, estetik onggi, to‘qish uslublari o‘zgarib turli ranglardan foydalanishga erisha boshlashgan.

Vohada gilamchilik an‘analarida *olacha gilam* muhim ahamiyat kasb etib va u bir qancha turlarga: 1. *Olacha*. 2. *Sholcha*. 3. *Terma sholcha*. 4. *G‘ajari sholcha*. 5. *Teng o‘rov* kabilarga bo‘linadi. Bu gilam ishlanmalari oddiy yog‘och dastgohlarda to‘qilgan bo‘lib, ularning o‘lchami insonning qulochi bilan (*vohada bir quloch bir metr sifatida o‘lchangan*) o‘lchangan va eng katta gilam mahsuloti hajmi 18 qulochgacha bo‘lgan.

Gilamdo‘zlar g‘ajari va terma sholchalarga gul naqsh-bezakli nusxalar tushirishadi. Bunday nusxalar matematik hisob bilan iplarni terib gul chiqarishib, ularni 3-4 nafar kishi ikki tomonlama o‘xshash qilib to‘qiladi. Bundan tashqari, aholi orasida *arabi gilam*, *taqir gilam*, *julbaroq* (*julxirs*) nomli gilam turlari ham mavjud bo‘lgan. Arabi gilamlarning o‘ziga hosligi uni erishiga jun, arqon ya’ni, rangli iplardan matematik hisob bilan nihoyatda ko‘rkam qo‘l mehnati asosida yaratiladi.

*Julxirs* so‘zi ikki manba asosida paydo bo‘lgan bo‘lib, *jul* – fors-tojikcha, *teri* va *xirs* – arabcha ayiq degan ma’noni bildiradi. *Julxirs* patining uzunligi uning nomi «ayiq terisi» ma’nosiga yarasha, 15-20 mm ga boradi. Oddiy patli gilamlarning pati ko‘pi bilan 11 mm.dir. *Julxirs* stanoklarda to‘qilish texnikasi jihatidan O‘zbekiston gilamlarining eng qadimiy turiga mansubdir<sup>43</sup>.

<sup>43</sup> Tursunova T. O‘zbek tili amaliy san’at leksikasi. –Toshkent: Fan, 1978. – B. 105-106.

M.F.Gavrilovning guvohlik berishicha, Samarqand viloyatida mazkur tushuncha *julxirs, julbaroq, zulbaroq, patli zulvaraq* kabi soʻz terminlar vositasida ifodalangan<sup>44</sup>.

Vohada *julbaroq, julpat, zulvaroq* (julxirs) deb ataluvchi gilamga pat bogʻlanadi. Biroq gilamni toʻqish jarayonida bogʻlangan pat qirqilmasdan yogʻoch dastgohga yaxlit qilib quriladi. Julxirs gilamida erish iplari 200-250 donadan iborat boʻlib, bir taraflama (bir bet) bogʻlanadi va qirqilmaydi. Julxirs-julbaroq gilamini toʻqishda dastgoh olacha gilamnigiga oʻxshab quriladi va ensiz shaklda quloqlab oʻlchanadi. Gilam toʻqilib bitgandan keyin gullari hisoblab chiqilib, keyin qirqiladi. Gilamdoʻzlar gilamning oʻsha qirqiladigan joylarini olachaga oʻxshatib pat bogʻlamay ketishadi. Shu bois, yoqimli yumshoq er toʻshama-julxirs gilami paydo boʻladi.

*Julxirs gilam* asosan, Jizzax vohasining Forish tumani aholisi orasida koʻp toʻqilgan va hozirda ham toʻqilib kelinmoqda. Gilam yumshoq boʻlganligi va tez toʻqilganligi uchun aholi tomonidan kundalik hayotda juda keng foydalaniladi. Dala tadqiqotlari jarayonida vohaning Forish tumanida julxirs gilamlarining ikki xilda ip bogʻlab toʻqilishi kuzatildi. Xususan, arqoq ustiga bogʻlanadigan oddiy julxirs va ikkinchisi gilamga oʻxshatib arqoq osti hamda arqoq ustiga bogʻlanadigan biroz pishiq-puxta toʻqiladigan julxirs gilamlarga ajratib koʻrsatish mumkin<sup>45</sup>.

**Vohaning Baxmal tumani Nushkent qishlogʻida gilamning *julpat, olacha, gʻajari olacha* kabi koʻplab turlari mavjud boʻlib, baʼzan paxta va ipakdan *holi gilam* ham toʻqilganligi toʻgʻrisida maʼlumotlar uchraydi<sup>46</sup>.**

Gilamning usti qismi silliq chiqishi iplarni qalinligi va bir tekis toʻqilishiga bogʻliq boʻlgan. Yumshoq patli gilamlarni qoʻshimcha pat qismi uchun alohida ip tayyorlanadi. Har guruhning ichki qismida oʻziga xos texnik usullari boʻlib, gilamdoʻzlar toʻqiladigan gilamda turli tasvirlar chiqarish uchun har xil rangli iplardan foydalanishadi. Pat uchun oʻtkaziladigan iplar gilamga asos iplardan oʻtkazilib kichik bogʻlam hosil qilinib, bogʻlam esa qoʻl bilan hosil qilinadi.

Dala tadqiqotlarida axborotchilarning koʻpchiligi jundan tayyorlangan mahalliy gilam, *olacha* va *taqirloqlar* nam oʻtkazmasligi, rangini yoʻqotmasligi, issiq boʻlishi xususiyatlarini qayd etishdi. Qizigʻi shundaki, bunday fikrlarni gilam sotuvchilar emas, balki, aynan xaridorlar taʼkidlayotganliklari eʼtiborga molikdir<sup>47</sup>. Bundan maʼlum boʻldiki, gilam toʻqish hunari kamayib ketgan boʻlsa-da, mahalliy gilam mahsulotlariga boʻlgan talab hali ham mavjud.

Vohada aholi orasida echki junini gilamdoʻzlikda qoʻllash XX asr boshidan boshlangan. Baxmal va Zomin oʻzbeklarining dagʻal uzun zulvaraq gilami asosan qoʻy junidan toʻqilgan. Paxta kalavalaridan patsiz palaslar toʻqishda keng foydalanilgan boʻlsa-da, qimmat gilamlar toʻqish uchun ularga paxta ipidan ishlatilmagan.

<sup>44</sup> Гаврилов М.Ф.О ремесленных цехах Средней Азии // Известия Средне - Азиатского комитета по делам музеев и охраны памятников страны, искусства и природы. вып. 9. – Ташкент, 1928. – С. 53-59.

<sup>45</sup> Dala yozuvlari. Jizzax viloyati. Forish tumani, Narvon qishlogʻi. 2019 yil.

<sup>46</sup> Dala yozuvlari. Jizzax viloyati. Baxmal tumani, Nushiravon qishlogʻi. 2020 yil.

<sup>47</sup> Dala yozuvlari. Jizzax viloyati. Baxmal tumani, Oqqoʻrgʻon, Tagop, Danagʻara qishloqlari, 2019 yil.

Junni titish gilamdoʻzlikdagi muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Unda ishlatiladigan asbob turkmanlarda *yun darak*, oʻzbeklarda *taroq yoki jun taroq* deb ataladi. Taroqda ikki qator oʻtkir temir tishlar yogʻoch asosga birlashtirilgan. Elshunos olim B.X.Karmisheva urchuqning turlari sakkizta boʻlganligini taʼkidlaydi<sup>48</sup>. Qoʻl urchuqlari - qoraqalpoqlarda – *urshyk*, turkmanlarda – *ik*, qirgʻizlarda – *iyk*, oʻzbeklarda *yig* yoki *dug* deb ataladi<sup>49</sup>.

Junni tayyor mahsulot holatiga keltirish bir necha bosqichni oʻz ichiga olgan. Jun qirqib olingach yuvilib, quritilib qoʻlda titib chiqilgan. Urchuqda jun yigirilib, soʻng kalavalangan. Kalavalangan iplar toʻzilib, rang berilgan (boʻyalgan) va quritilgan. Boʻyalgan iplar oʻrmak qilingan holda toʻqilgan.

Jun tolalaridan kigiz (namat) buyumlari tayyorlashda ham dagʻal-mayinligiga fizik-mexanik xususiyatlari: plastinkaligi, elastikligi, choʻziluvchanligi, kirishuvchanligiga ahamiyat beriladi. Qadimdan vohaning Baxmal va Zomin qishloqlari oʻzbek va qirgʻizlarida kigiz bosish qoʻlda bajariladi. Umuman, kigiz bosish qadimdan chorvachilik bilan shugʻullangan barcha xalqlar orasida keng tarqalgan. Asosan, ayollar tomonidan yuvib tozalangan va savalangan jun navlari (yuzlik, oraliq, orqalik) ajratiladi. Hoʻllangan jun namat yoki buyra qalin ustida tekis yoyiladi: avval guli xosil qilinadi, soʻng oraliq va navbati bilan oraliq qismlari bir tekis yoyib chiqiladi, ustidan qaynoq suv quyiladi, soʻng namat dumalatib oʻrab yigʻiladi, arqon bilan bogʻlanadi. Oʻramaoyoq bilan tepiladi, bilaklanadi, dumalatiladi. Vaqt-vaqti bilan suv sepib xoʻllab turiladi. Maʼlum vaqtdan soʻng oʻram echiladi, suv sepiladi va yana oʻraladi hamda tayyor bulgunga qadar bostirish davom ettiriladi. Soʻng tayyor boʻlgan kigizga soʻnggi pardoz beriladi yaʼni chetlari tortiladi, tekislanadi, ortiqcha tuklari qirqib tashlanadi.

Gilam toʻqish Oʻrta Osiyoda XX boshlarigacha oʻziga xos xususiyatga ega boʻlgan. Barcha toʻqish moslamalari deyarli tayyorlanishi jihatdan bir xil boʻlgan. Faqat toʻqish dastgoxlarini yogʻochlarini qalinligi, uzunligi, kaltaligidan farq qilishi mumkin. Shuningdek, toʻqish dastgohi unchalik takomillashmagan. Shu bois, gilam toʻqish moslamalari juda oddiy hisoblanadi. Hatto, gilam patini kesadigan qaychilar ham juda oddiy boʻlib, toʻqish moslamalarning oddiyligi tayyorlanadigan buyumlarning sifatiga taʼsir qilmaydi.

Dastgoh (stanok) lar gorizantal-tik holatda turgan. Ular ingichka va keng xolatda toʻqiladigan dastgohlar boʻlgan. Ingichka xolatda toʻqiladigan dastgohlarlar ensiz gilamlar toʻqish uchun ishlatilgan boʻlib, asosan koʻchmanchi va yarim koʻchmanchi aholiga tegishli boʻlgan. Bunga sabab, kerak vaqtda uni osongina yigʻib olish mumkin boʻlgan va qiyinchiliksiz boshqa joyga koʻchirishgan. Uni albatta, uy ichkarisida emas koʻp hollarda hovlida qurishgan, boʻlib u 6-7 metr (10-15) gacha joyni egallagan.

<sup>48</sup> Кармишева Б.Х. Ткачество и приядение у населения южных районов Таджикистана и Узбекистана (XIX – начало XX вв.) // Проблемы типологии в этнографии. – Москва: Наука, 1979. – 257 б.

<sup>49</sup> Davlatova S.T. Oʻzbek anʼanaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida. Toshkent: Yangi nashr. 2018. 238 b.

Keng usulda to'qiydigan dastgohlarni bir joyga qimirlamaydigan qilib o'rnatishgan. Uni qo'zg'ash yoki ko'chirish juda murakkab jarayon bo'lib, gilam to'qib bo'lingach bir necha oyda buzib olingan. Bu dastgohlarni gilamdo'zlar o'zlarini yashash uylari yoki qora uylar (o'tov, yurta)da ichkari xonalarda qurishgan. Agar dastgohlarni hovlini o'rtasida ochiq joyda qurishsa, unda uning ustiga ayvon qurish zarur bo'lgan. Bunaqa ayvonlarni qurish asosan hozirda Turkmaniston hududida keng tarqalgan.

Voha hududidagi gilam to'qish texnikasi bugungi kunga qadar o'zining arxaik ko'rinishini saqlab kelmoqda. Barcha gilamdo'zlik tumanlarida to'quv dastgohlari tuzilishi jihatidan bir-biriga deyarli o'xshash. Faqatgina dastgohdagi sodda ko'rinishdagi tayyoqlarning uzun-qisqa va qalin-ingichkaligiga qarab shartli ravishda ularni quyidagicha ajratish mumkin.

Keng o'ramali dastgohlar (*ko'targi, odarg'i, ikkita oyog'i, seruv, kuzuv, qilich, uchta qoziq*) qo'zg'almaydigan qilib o'rnatilib, unda *qoqma gilam* va *zulvaraqlar* to'qiladi.

Vohada patli gilam tayyorlashda uch xil ip ya'ni, *asos uchun, o'ram* va *patli* ip yigirish zarur bo'ladi. Patsiz gilam to'qish uchun esa fakat ikki xil ip ya'ni, *asos* va *o'ram* uchun ip tanlanadi. Ularning mahalliy nomlari *asos, o'ram, pat*, deb atalib, qirgizlarda – *ershuv, arkak*, arablarda – *guat, pud* (pod); turkmanlarda – *epiu, argach – chitma*, o'zbeklarda – *irish – argach pat*, Jizzax vohasi aholisi orasida esa *erish, arqoq*, deb yuritiladi.

Asos uchun yigiriladigan ipni ikki xil usulda *charx* va *urchuq* yordamida qo'lda yigiriladi. Qadimgi davrdan buyon ip yigirishda usta-gilam to'quvchilarning tajribasi ancha oshib borgan. Gilam – to'qish jarayonida ancha vaqtlar davomida asos iplari uzilib ketgan. Ba'zi holatlarda asos iplari yaxshi va bir tekis xolatda bo'lganligi uchun to'qilayotgan gilamning gullari va naqsh tasvirlari notekis chiqqan. Shuning uchun ustalar asos iplarini o'zlari mustaqil tarzda tayyorlamasdan ularni boshqa tajribali kishilarga buyurtma asosida tayyorlatishgan.

Umuman olganda, vohada an'anaviy gilamlarning 10 dan ortiq turlari sanab o'tildi. Shuningdek, qadimiy va zamonaviy gilamlarni saqlash va avlodlarga etkazish voha aholisining o'ziga hos urf-odatlaridan hisoblanadi. Voha gilamlarining to'qilish uslubi, naqsh-bezaklar berish, rangi, xom-ashyosi, gilam dastgohlari, gilam to'qishda ishlatiladigan iplarning bo'yalish texnikasi va sifat darajasiga qarab bir - biridan farklanadi. Xususan, O'zbekistonning turli hududlariga xos gilam to'qish texnikasidan deyarli farq qilmasa-da, vohada gilamlarga munosabat, saqlash, rang berish texnologiyasi, hajmi va nomlanishiga ko'ra lokal xususiyat kasb etilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Jabborov I.M. O'zbek xalqi etnografiyasi. 309 b.
2. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. - С.70.

3. Bo'riev O., Xo'jamberdiev T. O'zbek xalqi boqiy qadriyatlari. – Qarshi. «Nasaf», 2005. – B. 40.
4. Tursunova T. O'zbek tili amaliy san'at leksikasi. –Toshkent: Fan, 1978. – B. 105-106.
5. Гаврилов М.Ф.О ремесленных цехах Средней Азии // Известия Средне - Азиатского комитета по делам музеев и охраны памятников страны, искусства и природы. вып. 9. – Ташкент, 1928. – С. 53-59.
6. Кармишева Б.Х. Ткачество и приядение у населения южных районов Таджикистана и Узбекистана (XIX – начало XX вв.) // Проблемы типологии в этнографии. – Москва: Наука, 1979. 257 с.
7. Davlatova S.T. O'zbek an'anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida. Toshkent: Yangi nashr: 2018. 238 b.
8. Dalal yozuvlari. Jizzax viloyati. Baxmal tumani, Sutli buloq qishlog'i. 2019 yil.
9. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati. Baxmal tumani, Temurqadam qishlog'i. 2020 yil.
10. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati. Forish tumani, Narvon qishlog'i. 2019 yil.
11. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati. Baxmal tumani, Nushiravon qishlog'i. 2020 yil.
12. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati. Baxmal tumani, Oqqo'rg'on, Tagop, Danag'ara qishloqlari. 2019 yil.
13. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati, Zomin tumani. 2020 yil
14. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati. Baxmal tumani, Sutlibuloq va Duvlat qishloqlari. 2020 yil.